

**AHMAD IBN MAHMUD MUIN AL-FUQARONING “TARIXI MULLOZODA” ASARI
TO‘G‘RISIDA BA‘ZI MULOHAZALAR**

Hafizov Siyovash Oqiljon o‘g‘li

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Sharq falsafasi va germeneytikasi kafedrası 2-bosqich magistranti.

siyovashh@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15198296>

Annotatsiya. Ahmad ibn Mahmud Muin ul-Fuqaroning “Tarixi Mullozoda” asari ziyorat odoblari, Buxoro shahri va uning atrofida dafn etilgan yoki maqbaralari joylashgan 160 ga yaqin ulug‘ ulama, faqih, so‘fiy, qozi, olim, podshoh, sulton va boshqalar to‘g‘risida qisqacha ma‘lumot beruvchi asar bo‘lib, mazkur tadqiqot ishida ushbu asarning yozilish sabablari hamda undan ko‘zlangan maqsad, asarning tuzilishi, qo‘lyozma nusxalari borasida ma‘lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Muin ul-Fuqaro, Tarixi Mullozoda, Sipohsolar, rahmatulloh.

**SOME REMARKS ON AHMAD IBN MAHMUD MUIN AL-FUQARA’S WORK
“HISTORY OF MULLOZADA”**

Abstract. Ahmad ibn Mahmud Muin ul-Fuqara’s “History of Mullozoda” is a work that provides brief information about pilgrimage customs, about 160 great scholars, jurists, Sufis, judges, scholars, kings, sultans, and others who are buried or have their tombs in the city of Bukhara and its surroundings, This research paper provides information about the reasons for writing this work, its intended purpose, the structure of the work, and manuscript copies.

Key words: Muin ul-Fuqara, History of Mullazoda, Library of the Sipokhsolar, rahmatullah.

**НЕКОТОРЫЕ МЫСЛИ О РАБОТЕ АХМАДА ИБН МАХМУДА МУИНА АЛЬ-
ФУКАРА «ТАРИХ-И МУЛЛА-ЗАДЕ»**

Аннотация. В труде «Тарих-и Мулла-заде» Ахмада ибн Махмуда Муина уль-Фукары содержатся сведения об обычаях паломничества, о 160 великих ученых, правоведах, суфиях, судьях, ученых, царях, султанах и других, которые были похоронены или имели свои мавзолеи в и вокруг город Бухара. Это произведение, в котором дается краткая информация о произведении, а в данной исследовательской работе дается информация о причинах написания данного произведения, его предполагаемой цели, структуре произведения и рукописных копиях.

Ключевые слова: Муина уль-Фукары, Тарих-и Мулла-заде, Библиотека Синахсалара, рахматуллах.

Ahmad ibn Muin al-Fuqaro qalamiga mansub “Tarixi Mullozoda dar zikri mazoroti Buxoro” qisqacha “Tarixi Mullozoda” asari ziyorat odoblari, Buxora va uning atrofidagi mozorlar haqida hikoya qiluvchi hijriy IX asrning birinchi yarmida fors tilida yaratilgan tarixiy manbalardan biri bo‘lib, mazkur asarda jami 160 yaqin olim, faqih, so‘fiy, shayx, sulton, podshoh, qozi va boshqalarga doir ma’lumotlar bilan birgalikda ularning mangu qo‘nib topgan yerlari to‘g‘risida ham zikr etilgan. Asar ikki qismdan iborat bo‘lib, birinchi qismida Buxoro shahri va shahardan yarim farsang uzoqlikda dafn etilgan buyuklar haqidagi ma’lumotlar keltirilgan bo‘lsa, ikkinchi qismida shahar atrofidagi aziz ulug‘lar haqida so‘z boradi.

Manbada Alloh taolaga hamd, payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v) ga salovat hamda Buxoro to‘g‘risidagi ma’lumotlardan so‘ng, kirish qismida Buxoro shahrining musulmonlar tomonidan fath etilishi, shaharning islom o‘lkasiga aylanishi, Qur’oni Karim oyatlari va hadis shariflarda bayon qilingan tarzda qabr ahlini ziyorat qilish hamda ziyorat odoblariga doir ma’lumotlar keltirilgan. Muallif asarning keyingi qismida Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v) hadisi shariflari, fiqhiy kitoblar va ahli sunnat ulamolariga tayangan holda musulmonlar tomonidan qabr va maqbaralarni ziyorat qilish odoblari hamda uning asoslariga batafsil to‘xtalgan. Keyingi falsda esa qabrlarni ziyorat qilish doir ma’lumotlar ikki til arab va fors tillarida keltirilib, ular hadis sharif va ulamolar qarashlari bilan qanoatlantirilgan hamda ziyorat qilish chog‘ida parhez qilinishi kerak bo‘lgan ishlar isbot va dalillar bilan keltirilgan.

Kitobda nomi birinchi zikr qilingan ulug‘lardan biri buyuk olim, faqih va shayx Abu Hafs Kabir (150-218) rahmatullohi alayh hisoblanib, bundan boshqa Buxoro tarixiga doir asarlarda ushbu ulug‘ insonga doir ma’lumotlarni ko‘plab o‘rinlarda uchratish mumkin. Asarda qayd etilgan oxirgi inson solik shayx Bobomuborak Chahortoqiy rahmatullohi alayh bo‘lib, kitob u kishining muborak nomlari bilan yakunlanadi.

“Tarixi Mullozoda” ga muqadimma, sharh va asrning fors tiliga tabdilini amalga oshirgan eronlik tadqiqotchi olim Ahmad Gulchin Ma’oniyning asar tabdiliga yozgan kirish so‘zida keltirilishicha, mazkur asar muallifi Muin al-Fuqaro Ahmad ibn Mahmud Mullozoda Buxoriy biografiyasiga va boshqa asarlariga doir ma’lumotlar topilmagan.

Kitobda keltirilgan ma’lumotlardan anglashiladiki, Muin al-Fuqaro olim, donishmand, orif va ulug‘ xonadon vakillaridan biri bo‘lgan. Olimning o‘zi ham asarning Shoristonlik

imomlar qismida buyuk silsila vakillaridan ekanligiga ishora qilib o'tgan. Asarning Sayfiddin Boxarziy tomonidan amalga oshirilgan tarjimasidan ma'lum bo'ladiki Ahmad ibn Mahmudning nazm yo'nalishida ham iste'dodi bo'lgan¹.

Tasavvufdagi tariqat silsilasi bo'yicha hanafiy mazhabining naqshbandiya tariqati vakili hisoblanib, Xoja Muhammad Porso rahmatullohi alayhning muridlaridan biri bo'lgan. Muin al-Fuqaro "Tarixi Mullozoda" kitobining o'n yettinchi sahifasida yaqinlik va uzoqlik ruhlar olamida birdir deb yozar ekan bu to'g'rida o'z shayxining fikrlarini ham zikr etib o'tadi: "Ulug' valiy zot Mavlono Xoja Porso Muhammad bin Muhammad al-Hofiziy al-Buxoriy qaddasallohu sirrahu bu fikrni (yaqinlik va uzoqlik ruhlar olamida birdir) maqullaganlar".

Mazkur asar soda va ravon tilda tilda yozilgan bo'lib bayon jihatidan Muhammad Narshaxiyning "Buxoro tarixi" asariga o'xshab ketadi².

Asar muallifining o'zi ta'kidlaganidek, bu kitobni yozishdan ko'zlangan bir qancha maqasdlari bo'lib, ulardan biri islom madaniyati, shaharlari va aholisi to'g'risida o'quvchilarga ma'lumot yetkazishdir. Muin ul-fuqaroning ulardan birini shunday izohlaydi: "Shuni bilginki, din ulamolari va yer yuzi mashoyixlari rahmatullohi alayhim ajma'inning pok ruhlari va muqaddas mashhadlariga hurmat ado etish barakotlarning oshishiga sabab hamda din va dunyo saodatiga erishishga vosita bo'ladi"³.

Muallifning fikriga ko'ra, olimlar, islom mashoyixlari va ulug' avliyolar o'z hayotlarining katta qismini aholi orasida o'tkazishgan. Natijada avom xalq ular berib turgan baraka hamda ularning qadrini yaxshi anglashmagan. Ulardan ba'zilarining moqomu hollari nafaqat tiriklik chog'larida, balki vafot etganlaridan so'ng ham ko'pchilikka ma'lum bo'lmagan.

Ammo ba'zilarini Alloh azza va jalla o'z fazli va karami bilan siylaganligi sababli xaloyiq ularning zohiriy hamda botiniy qarashlaridan bahramand bo'lgan. Muin ul-Fuqaroning yozishicha, bu guruh ulamo va avliyolar hayotlik chog'larida ko'plab insonlarning hidoyatiga sabab bo'lganliklari singari, vafot etganlaridan so'ng ham ularning muqaddas ruhlariga yaqinlik natijaga yanada samaraliroq yetishishga xizmat qilgan. Shunday qilib muallif o'z asarini yuqoridagi e'tiqodiy va shaxsiy yondashuvlardan kelib chiqqan holda shunday shakllantiganki, Buxoro va uning atrofida dafn etilgan har bir ulamoning qadri va ahamiyati qayta jonlangan.

¹ Ahmad Gulchin Maoniy, Ahmad ibn Mahmud Muin ul-Fuqaroning "Tarixi Mullozoda" asari. Eronshunoslik tadqiqot markazi. Tehron. 2001-yil. – B. 2

² O'sha kitob - B.

³ Rahimov K. Ahmad ibn Mahmud Muin ul-Fuqaroning "Tarixi Mullozoda dar zikr mazoroti Buxoro" (Buxoro mozorlari to'g'risida Mullozodaning tarix kitobi), Fan nashriyoti. Toshkent. 2019 yil. – B. 17.

Yuqorida zikr etilgan ma'lumotlar bilan birgalikda muallif asarda musulmolar orasidagi odob-axloq va xulq-atvor singari mavzularga ham to'xtalgan. Masalan ziyorat odobi to'g'risida shunday degan: "Tikka turib ziyorat qilsinlar, qabr va mozorlar ustiga o'tirmasinlar hamda qabristonda namoz o'qimasinlar. Qabrni silamasinlar va uni o'pmasinlarki, bu nasroniylarning odatidir"⁴. Muallifning ularni eslatib o'tishdan ko'zlagan asosiy maqsadi, oddiy aholi tomonidan ulug'larning qabr va mozorlarni ziyorat qilish chog'ida yo'l qo'yiladigan xato va kamchiliklarni to'g'irlashdan iborat bo'lgan. Muallif tomonidan ilgari surilgan fikr va mulohazalar fiqh hamda usul kitoblaridan bu xususda olingan dalillar bilan mustahkamlangan.

Muin al-Fuqaro o'z kitobidagi ma'lumotlarni mantiqiy va oldindan hisob-kitob qilingan usul asosida shakllantirgan bo'lib, kitob qismlari o'z o'zidan mavzuning kengayib borayotgani hamda muallif nima to'g'risida bahs yuritayotganini ko'rasatib beradi. Muqaddima, Buxoro va uning atrofi geografiyasi doir ma'lumotlardan tashqari "Tarixi Mullozoda" asarining matni o'lim va hayot to'g'risidagi debocha bilan boshlanib, keyin kitobda ko'rib chiqiladigan asosiy masalalar hamda ularni ommaga tanishtirish borasida so'z borib, muallif bu mavzularini ilgari surishdan ko'zlagan asosiy maqsadini ham ta'kidlab o'tgan. Unda keyin esa turli manbalardan foydalangan holda Buxoro shahri tarixiga doir ma'lumotlar zikr etiladi. Muallif asarning sarlavhasi noma'lum bo'lgan keyingi faslida aholi nazdida islom olami ulamolari nechchi guruhga bo'lindi va ulamolar qabrini ziyorat qilishning sababi nimada? singari savollarga o'zining fikr mulohazalarini bildirgan. Keyin esa bayon qilishdan ko'zlangan maqsad va mavzuni yetkazib berish shakli hamda mozorlar to'g'risida to'xtalib o'tgan. Mozorlar va maqbaralar to'g'risidagi bob ikki qismga jaratilgan holda keltirilgan bo'lib, birinchi qismida, shahar ichi va undan yarim farsang uzoqlikdagi barcha qabrlar, ikkinchi qismida esa, shahardan tashqari va uning atrofidagi mozolar to'g'risida bayon etilgan.

Muallif asarning keyingi bobida ulamolar qabri va maqbaralari joylashgan yerlarni tarixiy va geografik jihatdan quyidagicha tasniflaydi: Tal Xoja mozolari, Safforiy imomlar qabrlari, Ayub chashmasi mozorlari, Somoniy sultonlar (rahimahulloh) mozorlari, Sattojiy maqbarasi, Muqaddam hovuzi mozorlari, Sabzmun mozorlari va Xoja Poraduz maqbarasi⁵. Muin ul-Fuqaro asarning ikkinchi qismida o'zi uchun alohida ahamiyat kasb etgan Fathobod mahallasi hududida joylashgan mozorlar haqida bayon qilib, ushbu hududning nima sababdan alohida ahamiyatga ega ekanligiga ham to'xtaladi. Mazkur qismda Sadrlar maqbarasi, Sadr A'zam al-Burhon,

⁴ Ahmad Gulchin Maoniy, Ahmad ibn Mahmud Muin ul-Fuqaroning "Tarixi Mullozoda" asari. Eronshunoslik tadqiqot markazi. Tehron. 2001-yil. – B. 3

⁵ Shahrom Yusufifar. Tarixi Mullozoda dar zikri mazorati Buxoro asari to'g'risida. 2001-yil. Tehron. – B. 8

Bug‘robek maqbarasi, Buxoroning yetti qozisi mozorlari, shoristonlik imomlar qabrlari haqida so‘z boradi. Kitob so‘ngida xonadonlar, toifalar, joylar, geografik ma‘lumotlar va boshqalar ilova qilingan.

Muallif Buxoro mozorlari to‘g‘risida ma‘lumot yetkazish uchun turli xil usullardan foydalangan. Gohida oddiy omma orosida mavjud bo‘lgan hikoya va fikr-mulohazalarga ishora qilgan. Lekin ko‘p o‘rinlarda aholi orasidagi mavjud fikr-mulohazalarni har doim ham to‘g‘ri bo‘lmasligiga doir faktlarni keltiradi. Gohida muallif o‘z ma‘lumotlarini asl tarixiy manbalarga tayangan holda bayon qiladi. Masalan, kitobning ba‘zi o‘rinlarida shunday deyilgan: “... qadimiy nusxasida ketirilgan”. Muallif “Robi’ ul-abror”, Zamaxshariy asarlari yoki Juvayniyning “Tarixi Jahonkushoy” va Narshaxiyning “Buxoro tarixi” singari manbalarda foydalanishga katta ahamiyat bergan. U tarixiy manbalarga taynamagan holda keltirgan rivoyatlarni bayon qilishda turli istilohlardan ham foydalangan. Kitobda keltirilgan ba‘zi bir mavzular muallifning tajribasi va mushohadasidan kelib chiqqan holda yozilgan. Albatta bu fikr-mulohazalarda ham reallikdan yiroqlik kuzatilib, muallif o‘zi ham unga ishora qilgan. Yuqoridagilardan tashqari muallif ishora qilinayotgan shaxslarning tavalludi, vafoti va hayotidagi boshqa muhim voqealar haqida ma‘lumot berishda abjad hisobidan foydalanganligi o‘z ishini yana ham aniqroq va diqqatliroq bajarganidan dalolat beradi⁶.

Muallifning bayon qilish usuli ham Buxoro shahridagi mozorlar taqsimlanishiga ko‘ra ikki umumiy guruhga bo‘linadi: birinchi qism, shahar ichida va undan bir farsang uzoqlikda dafn etilgan ulug‘lar mozorlari va ikkinchi qism, shahar tashqarisi va uning atroflaridagi akobirlar qabrlari. Bu usul muallifning mavzuga o‘ziga xos nazm bag‘ishlashiga sabab bo‘lgan.

Muallif Buxoro shahrida joylashgan qabrlar manzili va ro‘yxatini keltirishda bir sodda usuldan foydalanadi. U dastlab eng qadimgi qabrlar ya‘ni Buxoroning musulmonlar tomonidan ilk marotaba fath etilgan paytdagi mozorlarga to‘xtaladi. Kitobda islomdan oldingi davlardagi maqbaralar va qabrlar to‘g‘risida hech qanday ma‘lumot keltirilmagan. Muin ul-Fuqaro Buxoro shahri geografiyasidan kelib chiqib, mozorlar to‘g‘risida ma‘lumot berishni Abu Hafs Kabir Buxoriy rahmatullohi alayh qabridan boshlaydi va undan keyin boshqa qabrlarga birma-bir to‘xtalib o‘tadi. Darhaqiqat muallif tomonidan ba‘zi din ulamalarining tanlanishi bevosita uning diniy va mazhabiy mulohazalariga bog‘liq bo‘lgan. Muallif fikr-mulohazalarining xojagon naqshbandiya tariqatidan sarchashma olganligini, uning mazkur tariqat ulug‘ yo‘lboshchilaridan biri Xoja Porso Muhammad bin al-Hofiziy Buxoriy rahmatullohi alayhni alohida tasvirlagandan

⁶ Shahrom Yusufifar. Tarixi Mullozoda dar zikri mazorati Buxoro asari to‘g‘risida. 2001-yil. Tehron. – B. 9

bilib olsak bo‘ladi. Albatta muallif asosiy e‘tiborini islom ilmi sohasiga qaratib, ba‘zi bir mavzularni tasdiqlash yoki inkor etish borasidagi muhokamalarida o‘zining fikr-mulohazalari va so‘zlarini faqihlar hamda islom dinining ulug‘ ulamolaridan misollar keltirgan holda isbotlaydi. Ta‘kidlash joizki, muallif naqshbandiya silsilasi vakili bo‘lishiga qaramasdan boshqa firqa vakillariga nisbatan ham adolatli munosabatda bo‘ladi. Masalan ismoiliya imomlarini hurmat bilan quyidagicha eslaydi: “... ularning qabrlari Xuroson yo‘li ustida joylashgan va kamina ularni ziyorat qilganman”. Muallif mozor nomlarini zikr etishda o‘ziga xos tanlovni amalga oshirgan bo‘lib, uning sababini turli xil izohlaydi. Muin al-Fuqaro asarining bir o‘rnida yozadi: “... bu maqbarada (Xoja Poraduz maqbarasi) ulamo, mashoyix va sodotlardan ko‘p”⁷.

Mozorlar zikri va ularni tadqiq etishda muallif tomonidan qo‘llangan usullardan biri bu yuqori diqqat bo‘lib, bu usul ulamo va mashoyixlarning tavalludi yoki vafoti sanalarini keltirishda keng foydalanilgan. Ba‘zida uning ma‘lumotlarida kichkina vaqt o‘lchovlar ya‘ni kunning turli paytlari ham keltiriladi. Katta ehtimol bilan muallif zikr etilayotgan buyuk inson to‘g‘risidagi manbalar, kitoblar, she‘rlar va qissalardan istofoda etish bilan birga maqbara toshlariga o‘yib bitilgan ma‘lumotlardan ham foydalangan. Kitobdagi ma‘lumotlarning o‘ziga xos jihati uning kitob nomiga movofiq emasligidadir. “Tarixi Mullozoda” nomi kitobni birinchi marta qo‘liga olgan o‘quvchida bu tarix to‘g‘risida kitob bo‘lsa kerak degan tasavvurni uyg‘otadi. Ammo kitob Buxorodagi qabr va maqbaralar o‘rganish hamda tadqiq etish to‘g‘risida bo‘lib, ba‘zi o‘rinlarda turli xil mavzulardagi muxtasar tarixiy ma‘lumotlarni ham o‘z ichiga oladi. Boshqa bir tomondan muallifni ham maqsadi tarix yozish bo‘lmagan. Shuning uchun ham kitobning ichidagi mavzular ularning zohiriy nomlanishidan ko‘ra muhimroq sanaladi.

Hijriy IX asr birinchi yarmida yozilgan “Tarixi Mullozada” asariga til jihatidan to‘xtaladigan bo‘lsak, muallif mavzularni bayon etishda o‘sha davr fors tilidagi iboralar, istilohlar, gramatik birikmalar va boshqalardan keng foydalangan. Qur‘oni Karim oyatlar, Hadis shariflar va ulug‘ ulamolarning asarlaridan havolalar asl hoida ya‘ni arab tilida keltirilgan. Shu jihatdan mazkur kitobni chop etish ko‘p jihatdan ham manfaatli bo‘lgan⁸.

“Tarixi Mullozoda” asarning Eron Islom Respublikasi qo‘lyozma fondlarida va kutubxonalarida saqlanadigan nusxalari to‘g‘risida ba‘zi ma‘lumotlar. Eron Islom Respublikasining Malik milliy kutubxonasida “Tarixi Mullozoda” ning №4329 va №4330 inventar raqami ostidagi ikkita qo‘lyozma mavjud bo‘lib, marhum Muhammad Hasanxon

⁷ Shahrom Yusufifar. Tarixi Mullozoda dar zikri mazori Buxoro asari to‘g‘risida. 2001-yil. Tehron. – B. 10

⁸ Shahrom Yusufifar. Tarixi Mullozoda dar zikri mazori Buxoro asari to‘g‘risida. 2001-yil. Tehron. – B. 11

Alouddavla kitoblar bilan bir majmuada keltirilgan. Mazkur ikki qo'lyozmada ham Buxoro shahri tarixi, geografiyasi, bino, imorat, masjid, mozor, bog'larning soni hamda ularga doir ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

Asarning yana bir nusxasi №4330 inventar raqami ostida Eron Islom Kengashi Majlisi kutubxonasida saqlanadi.

Eronning Sipohsolar madrasasi kutubxonasida saqlanadigan asarning №1642 inventar raqamli nusxasi nasta'liq xatida va Narshaxiyning "Tarixi Buxoro" asari bilan bitta majmuada keltirilgan. Hijriy 1106 yil Muhammad Shofe'iy bin Mullonazar Muhammad tomonidan ko'chirilgan mazkur nusxaga tuzatish kiritgan kotib asarning oxirida shunday yozadi: "Mazkur kitob hijriy 1234 yilda yozib tugatildi. Kotib asar nomini "Risolayi Mullozoda" deb keltiradi. Qog'ozning rangi va ishlatilgan siyohdan nusxa Buxoroda ko'chirilganligi anglashiladi.

Eron Islom Kengashi Majlisi kutubxonasida №-2/J225 inventar raqami ostidagi "Tarixi Mullozoda"ning nusxasi Sipohsolar marsasida saqlanadiga mazkur asar nusxasi singari Narshaxiyning "Tarixi Buxoro"si bilan bitta jildda keltirilgan⁹.

Malik milliy kutubxonasida mavjud "Tarixi Mullozoda"ning nusxasi nasx xatida bo'lib, kitobning bo'lchami 21*29,9 sm hamda sahifa atrofidagi bezaklari, matn va hoshiya Moliya vazirligi kutubxonasida saqlanadigan majmualar bilan bir xil ko'rinishga ega. Ko'chirilgan sanasi: 25 jumodul-oxir oyi hijriy 1292 yil. Kotibning ismi Masih bo'lgan (nusxada kotibning ismi alohida arab harflari mim, sin, ya va ha ko'rinishida keltirilgan). Bu nusxadagi ko'plab jihatlarni boshqa nusxalar bilan o'xshashligini inobatga olgan holda, hech bir shubhasiz aytishimiz mumkinki, mazkur nusxa ham Sipohsolar madrasida saqlanadigan nusxa asosida ko'chirilgan.

"Tarixi Mullozoda"ning 72 sahifidan iborat, sariq qog'ozda nas'taliq xati bilan muallif ismisiz ko'chirilgan, Narshaxiyning "Tarixi Buxoro" asariga ilova qilingan hamda Buxoroning Kogon shahri matbaasi kitob sotuvchisi Mullosulton bin Mullosobir Buxoriy tomonidan Eronga olib kelingan yana bir toshbosma nusxasi hijriy qamariy 1322 yilga tegishlidir. Bu nusxani tadqiq qilgan olim Said Nafisiyga ko'ra, "Tarixi Mullozoda"ning mazkur nusxasining 25 dan to 48 sahifagacha ya'ni deyarli kitobning 3/1 qismi mavjud bo'lmagan hamda xatoga yo'l qo'yilib asarning sahifalari o'rniga xuddi shu o'lcham va xat turidagi Narshaxiyning "Tarixi Buxoro" asarini ko'chirib qo'yishgan.

⁹ Ahmad Gulchin Maoniy, Ahmad ibn Mahmud Muin ul-Fuqaroning "Tarixi Mullozoda" asari. Eronshunoslik tadqiqot markazi. Tehron. 2001-yil. – B. 5

Nosiriddin al-Hanafiy al-Husayniy al-Buxoriy hijriy qamariy 1324 yilda Xojagon naqshbandiya tariqati silsilasi pirlari va qabrlari (Xoja Abdulxoliq G'ijduvoniyan to muallifgacha) to'g'risida "Tuhfatul zoyirin" nomli asar yaratadi. U mazkur asarni yaratishda Muin al-Fuqaroning "Tarixi Mullozoda"sidan asosiy manba sifatida foydalangan. Ushbu asar 144 sahifadan iborat bo'lib, hijriy qamariy 1328 yilda Buxoroda toshbosma shaklida chop qilingan. Kitobni asosiy qismi boshlanishidan oldin, muallif 20 sahifada "Tarixi Mullozoda"dan tushunganlarini umumlashtirib, oxirida shunday yozgan: "Mullozodaning oxiri"¹⁰.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, islom dinidagi ziyorat odablari aniq va tushunarli tarzda bayon etilgan, Buxoro hamda uning atrofida dafn etilgan 160 ga yaqin ulamo, fuqaho, olim, donishmand, so'fiy, shayx, qozi, imom, podshoh va sultonlar mozorlari to'g'risida ma'lumot berilgan Ahmad ibn Mahmud Muin ul-Fuqaroning "Tarixi Mullozoda dar zikri mazoroti Buxuro" (qisqacha "Tarixi Mullozoda" asari o'zidan oldin va keyin mazkur yo'nalishda yaratilgan ko'plab mo'tabar asarlarga qaramasdan, mozorlarni ziyorat qilish uchun asosiy qo'llanma o'laroq xizmat qilgan. Muallif mozar va qabrlarni ziyorat qilish odoblari haqida bayon qilish davomida o'zining fikr-mulohazalari muqaddas Qur'oni Karim oyatlar, Hadis sharif, islom dinidagi mo'tabar manbalar va boshqalardan dalillar keltirib, qanoatlantiradi. Bir so'z bilan aytadigan bo'lsak Muin ul-Fuqaro o'zining "Tarixi Mullozoda" asari yozish bilan birga shariat qoidalari bo'yicha qabrlarni ziyorat qilish va o'tgan ulug'larni haqlariga duo qilib, ularni ruhini shod etish bo'yicha o'ziga xos bir kodeksi yaratgan. Uning bu xizmatlaridan bir necha asrlar davomida mo'min musulmonlar foydalanib, muallif haqiga duolar qilishmoqda.

REFERENCES

1. Ahmad ibn Mahmud Muin ul-Fuqaro "Tarixi Mullozoda". 1889-yil.
2. Ahmad Gulchin Maoniy, Ahmad ibn Mahmud Muin ul-Fuqaroning "Tarixi Mullozoda" asari. Eronshunoslik tadqiqot markazi. Tehron. 2001-yil.
3. Shahrom Yusufifar. Tarixi Mullozoda dar zikri mazoroti Buxoro asari to'g'risida. 2001-yil. Tehron.
4. Rahimov K. Ahmad ibn Mahmud Muin ul-Fuqaroning "Tarixi Mullozoda dar zikr mazoroti Buxoro" (Buxoro mozorlari to'g'risida Mullozodaning tarix kitobi), Fan nashriyoti. Toshkent. 2019 yil

¹⁰ Ahmad Gulchin Maoniy, Ahmad ibn Mahmud Muin ul-Fuqaroning "Tarixi Mullozoda" asari. Eronshunoslik tadqiqot markazi. Tehron. 2001-yil. – B. 6